

Ota-onalar va bolalar munosabatlari psixokorreksiyasi.

Andijon viloyati Qo'rg'ontepa tumani maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasiga qarashli 33-umumiy o'rta ta'lim maktabi amaliyotchi psixologi

Yuldasheva Dilrabo Muxtarjonovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada psixologik korreksiya haqida turli ruhiy o'zgarishlarni bartaraf etish va sog'lom psixologik holatni shakllantirish uchun joriy etiladigan usullardan hisoblanishi haqida keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: Psixologik korreksiya, sog'lom psixologik holat, to'zatisht, oldini olish va rivojlantirish.

Psixologik korreksiya bu turli ruhiy o'zgarishlarni bartaraf etish sog'lom psixologik holatni shakllantirish uchun joriy etiladigan usullar hisoblanadi. Psixologik korreksiya dasturlarini to'zishda quyidagi tamoyillarga asoslanadi.

Korreksion ish 3 kurinishda amalga oshiriladi;

1) To'zatisht 2) Oldini olish 3) Rivojlantirish.

Bunda xar bir bola rivojlanishning turli bosqichlarida bo'lganligi sababli korreksion ishning bosqichma-bosqich olib borilishi nazarda tutiladi. Bola ona qornidan boshlab tarbiyalana boshlaydi. Bola dunyoga kelar ekan, xarakter xususiyatlari unga ota-onasidan, gendan o'tadi. U voyaga yetgani sayin uning fel-atvori, xarakter-xususiyatlari namoyon bo'la boshlaydi. Bolaga yoshligidanoq ota-onalar o'z talablarini qo'ya boshlaydi. O'zlari orzu kilgandek farzand bo'lishini xoxlashadi. O'zlari tanlagan kasbga yunaltirishga intilishadi. Bolaning qiziqishlarini kamdan-kam hollarda inobatga oladilar. Bola tanlagan kasbni unga mos emasligini, o'sha kasb-xunarining ortidan keladigan daromad arzimas ekanligini uqtirishga urinadilar. Vaxolangki o'zlari xam o'sha talab qilayotgan kasblarining mutaxassislari bo'lmasligi xam mumkin. Shu tariqa farzandlar

xunarmandchiligimizga qizikmay quyishayabdi. Bola ota-onaning qistovlari tufayli o'zi qizikmagan kasbni egallashga xam majbur bo'lib qoladi. Bu tufayli esa ular kelajakda o'z kasbini sevmay ishlashga majbur bo'lishadi xamda uzoq muddat faoliyat olib borisha olmaydi. Bunday holatlarni tuzatish maqsadida farzandlarni bolaligidanok qaysi soxaga qiziqishlarini aniklab, o'sha sohaga yo'naltirib borish lozim. Hozirda tuzatish ishlarini ota-onalardan boshlash kerak. Ota-onalarning hozirgi kundagi eng asosiy e'tibori pul topishga qaratilgan. Farzandidan hozirda ota-onalar maktabdan kelganlaridan so'ng kamdan-kami nechta baho olgani, qaysi darsni o'zlashtirishda qiyinchililarga uchrayotganliklari haqida so'rashadi. Ayrim ota-onalar farzandlaridan kim u bilan urishgani, kaysi o'qituvchi unga qo'pol munosabatda bo'lganligini so'raydi. Farzandiga qimmatbaxo kiyimlar kiydirishga urinadilar. Qo'lga pul berib yaxshi sharoitni ta'minlab berishga harakat qiladilar. Sharoiti ko'tarmasada qimmatbaho telefon olib beradilar. Farzand yuqoridagi sharoitlar xar doim qilib berilmasa, ota-onalar bilan ziddiyatga borib, o'z ta'lablarini bajartirishga urunadi. O'zlarini oilasidan uzoq tutgan xech nima bilan shugullanmay ko'chalarda manosiz tentirab yurishga urunadilar. Bu bilan ular o'zlari xoxlagan sharoitni talab qilib oladilar. Bolani kasbga yo'naltirib voyaga yetkazish uchun eng avvalo uning qobilyatlarini, qiziqishlarini yaxshilab o'rganib, ota-ona birgalikda o'sha ish bilan biroz bo'lsada shug'ullanib turishlari kerak. Shundagina boladan o'sha ishni uddalay olish hissi ortadi. Ko'p hollarda ota-ona birinchi ustoz vazifasini bajaradi. O'quvchilarni biron bir kasbni egallashga qizikmasligi bu uni o'z kelajagini ko'ra olmasligini ifodalaydi. Buni oldini olish uchun ota-onani dunyo qarashini o'zgartirish kerak. Ularni qanday kasb egasi bo'lsada o'sha kasbni egasi bo'lganliklaridan mamnun ekanliglarini oila davrasida ko'p bora ta'kidlab o'tishlari kerakligini tushuntirish lozim. Ota-onalar hayotda bulib turadigan qiyinchiliklarni oqilona tushkunlikka tushmasdan yengib o'tishga xarakat qilishlari kerak. Ota-onalar ko'p hollarda farzandlariga yaxshi o'qimasa o'zlarini xayotidagidek holatga tushib qolishlarin aytishadi.

Farzandlar oldida taqdirni, xayotni xaqorat qilishadi. Bu xayotdan, go'zal xayotdan nolishga o'tishadi. Bu esa farzandlarda mexr-muxabbat xissini kamayishiga olib keladi. A.Navoiyni «Maxbub –ul- qulub » asarida kishi xulq – atvorida namoyon bo'ladigan odob va tavoze do'stlik paydo bo'lishida eng asosiy shart sifatida qaraydi; «Tavoze – kishiga xalqning muxabbatini jalb qiladi, odamlarni u bilan do'slashtiradi. Tavoze – do'stlik gulshanida toza gullar ochadi va gulshanda oshnolik va ulfatchilik bazmiga xilma –xil gullar sochadi». Psixolog tomonidan bola bilan shlashda individual yondashuv dasturiga amal qilinadi. Psixolog korreksion ishida bolaning tashqi alomatlariga e'tibor berishi va mazkur muammolarni vujudga keltirayotgan sabablarni yo'q qilishga qaratiladi. Bolaning faoliyatga qanday yondashuviga e'tibor qaratiladi. Bolaning individual faoliyati xisobga olinadi. Bolaga kompleks ta'sir etiladi. Bolaning psixologik taraqqiyoti atrofdagilarning roli bilan belgilanishi mumkin. Korreksion dasturlarni tuzishda yaxshi taraqqiy etgan psixologik jarayonlarga suyanish va ularni faollashtiruvchi metodikalardan foydalanish kerak. Mavjud dasturlarni solishtirma taxlili asosida yangi dasturlar ishlab chiqiladi. Bolaning Korreksion ishlarni amalga oshirishda bolaning ko'nikma va malakalarining nisbatan shakllanganligiga e'tibor berish kerak. Korreksion ishda yaxshi emotsional fonni yuzaga keltirish kerak bo'ladi. Bunday davrda bolaga qo'pol munosabatda bo'lish yaramaydi.

Adabiyotlar

1. Karimov I.A Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch- « ma'naviyat» 2008
2. Oila psixologiyasi Akademik litsey va kasb-xunar kollejlari o'quvchilari uchun «Shark» nashiryoti- matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh taxriryati Toshkent – 2007
3. Akromova F.A, Abdullayeva R.M. “Sharq mutafakkirlari oila xususidagi karashlar” . T; «Shams ASA», 2002.-25